

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING YUZAGA KELISHI

Norinov Muzaffar Ramonjonovich

Namangan muhandislik texnologiya instituti

“Ijtimoiy fanlar va sport kafedrası” o’qituvchisi

Telefon (shaxsiy) +99894-504-20-26

Annotatsiya: Ushbu maqolda XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati, uning maqsad vazifalari bu yo’lda amalga oshirilgan ishlar va ularning jasoraotlari hamda mamlakat aholisini milliy uyg’onish, ozodlik, erk uchun kurashi haqida qisqacha so’z boradi.

Kalit so’zlar: Jadidchilik harakati, Sotsialistik diktatura, ma’rifatparvarlik, Teatr, adabiyot, uyg’onish, maktab, ma’orif, bolsheviklar, qatog’onlik.

Аннотация: В трех пословицах кратко рассказывается о борьбе, пришедшей в Туркестан в конце XIX - начале XX века, действиях и храбрости ее цели, а также о борьбе за пробуждение национального населения. и свобода.

Ключевые слова: движение джадидизм, социалистическая диктатура, просвещение, Театр, литература, пробуждение, школа, образование, большевики, репрессии.

Annotation: In three proverbs, there is a brief talk about the struggle that came to Turkestan at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, the actions and bravery of its target vehicle, and the struggle for the awakening and freedom of the national population.

Key words: Jadidism movement, Socialist dictatorship, enlightenment, Theater, literature, revival, school, education, Bolsheviks, repression.

Turkistonda jadidchilik harakati XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakillanib qisqa muddatda o’zining yuksak cho’qqilariga ko’tarilgan, 1917 yilgi Bolsheviklar to’ntarilishidan keyin ham sotsialistik diktatura o’rnatilishiga qadar o’z mavqeyi va yo’nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakatdir.¹

Jadidchilik harakati haqida shuni aytish mumkun-ki, mazkur davrda yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy, madaniy muammolar ularning nazaridan chetda qolmagan. Jadidchilik harakati a’zolari bosh maqsadi millat va vatan masalasi ularning doimo diqqat e’tiborida bo’lgan. Ayni paytda bu harakat millatni ham tarbiyalalar edi. Ular mamlakatni ozod bo’lishini anglab yetar ekan bu yo’lda eng avvalo mamlakat fuqarolarini uyg’otish va tarbiyalashga katta e’tibor qaratadi. Bu maqsad yo’lida, eng avvalo, maktab-maorifni isloh qilishdan boshladilar, so’ngra milliy matbuot yo’lga

¹ Milliy uyg’onish: jасorat, Ma’rifat, Fidoiylik. Toshkent. “Ma’naviyat” 2002. 4-bet

qo'yildi. Oddiy xalqni taffakuriga tasir etishning yangicha usuli sifatida Teatrqa asos solishdi. Yangi adabiyotlar shakllandi bir so'z bilan aytganda yangi tafakkur paydo bo'ldi.

Jadidchilik harakatining Turkistonga kirib kelishi Ismoil Gaspiralni nomi bilan bog'liqdir. U shunday deb yozadi: "1884 sanasi Boqchasaroyda bir maktab(n)I usuli jadid(g)a qo'ymish edim".² Bu Jadidchilik harakatini boshlanishi edi. Jadidchilik islohotlarining mazmuni faqat maktab doirasidagina qolmay, butun bir jamiyat hayotini qamrab oluvchi yangi usullarni targ'ib etishni nazarda tutardi. Abdulla Avloniyning "Tarjimai hilol" asarida shunday deb yozadi. "Shu zamonda yerli xalqlar orasida eskilik - yangilik" janjali boshlandi. Gazid o'quvchilarni mullalar "Jadid" nom bilan atar edilar³

Dramaturg Abdulla Badriy 1919 yilda "Yosh buxoroliklar kimlar?" degan savolga shunday javob beradi: "Onlarning fikru xayollari va muddaolari biz bechora va qashshoqlarni g'urbatdan, yani amirlar, beklar, va boylarning zulmidan ozod qilmoq va bizlarning rohatimiz va tinchligimiz uchun taraddud ko'rmoqdir"⁴.

Yuqorida bildirilgan mulohazada Sotsealistik tuzumning tasiri sezilib tursada, Jadidchilik harakati a'zolarining bosh maqsadi Jamiyatni, xalqni ozod va erkin hayot kechirishga chorlar edi. Bundan tashqari jadidlar "yangi tafakkur" "Yangi hayot" "Yangi avlod" yangicha dunyoqarash tarafdori edi.

Jadidchilik harakatini harakter yo'nalishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Jadidchilik ma'lum bir oqim emas, aksincha ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakatdir. Lekin sovet ittifoqi davrida jadidchilarga nisbatan turli bo'xtonlar, soxta tushunchalar yog'dirildi. Chunki bu davrda keng xalq ongiga sovet komunistik mafkurasiga qarshi bas kela oladigan kuch bu jadidchilik harakati edi. Jadidchilik harakati o'z davrida jamiyatning barcha qatlamlarini o'ziga qarata oldi. Jadidlarning g'oyalari jamiyatda uyg'onish mafkurasiga sifatida xizmat qila oldi. Mustaqillik uchun kurash olib borib, bu yo'lda g'ayrat va tashabbus bilan Turkiston muxtoryati deb atalmish milliy davlatchilikni tashkil eta oldi. Maorif va madaniyatni ijtimoiy- siyosiy maqsadlarga yo'naltira oldi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakatining bosh maqsadi ozodlik, hurlik, istiqlol ekan ular oldida maqsadga erishishning uch yo'li mavjida edi.

1. Rossiya tobeligidan zo'rlik bilan istiqlolni qo'lga kiritish edi. Masalan bu davrdagi harakat Dukchi eshon qo'zg'olni, 1916- yilda yuz bergan mardikorchiilik harakati.

² I. Gasprali. Rahbari muallimin yokimuallimlarga yo'ldosh. Simferapol 1898 yil 4-bet

³ Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2- jild. T. "Ma'naviyat", 1998 yil 288-bet

⁴ Abdulla Badriy. Yosh buxoroliklar kimlar? Maskva 1919 yil 3-bet

2. Murosa yo'li. Ruslar yordamida ma'rifatga erishish. Ma'rifat masalasida haq-huquq olish, milliy hususiyatlarni tiklash.(Ismoil gasprali,Maxmudxo'ja Bexbudiy)

3. Hamkorlik yo'li. Chor ma'muryati so'ng esa sovet hukumati bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatib, ularning dasturlarida qatnashib imkon bo'lishi bilan mustaqillikni qo'lga kiritish. Uning uchun ma'lum tayyorgarlik ko'rib borish. (Munavvarqori, Abdulla Avloniy.)⁵

Turkiston jadidchilik harakati Kavkaz, Vo'lga bo'yi, Turkiyadagi jadidchilikka nisbatan an'analarga ko'proq bog'lanib qolgan, umumiyevropa ijtimoiy madaniy jarayonlariga tortilish qiyinroq kechdi. Turkistonda har bir yangilikning kirib kelish jarayoni og'ir kechgan. Bir tomondan Rus ma'muryati bunga osonlikcha ruxsat bermagan. Masalan,Munavvarqorining jadid usuli ochishga qilgan murojaatiga Sirdaryo xarbiy general gubernatori rad javobini berdi. Lekin shunga qaramasdan jadid maktablari XX asr boshlarida ming bir mashaqqatlar bilan ochila boshladi. Bunda Rus tuzem maktablarining ham ma'lum roli bor. XX asr boshlarida Yangi maktablar uchun birinchi darslik sifatida maydonga kelgan "Ustozi avval" ning (1901) muallifi Saidrasul Aziziy 1900 yilda Toshkentdagi birinchi Rus – Tuzem maktabida " ikkinchi muallim"ni yozgan Aliasqar ibn Bayramali Qaliniy ko'chadagi ikkinchi Rus – tuzem maktabida "Sartiya" muallimlari edilar. "Usuli Jadidga" birgina rus ma'muryati emas,maxalliy mutasiblar ham qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Aziziy "Nasoro" (kofir) maxsum nom oldi.

Avloniy Yozadi: "1904 yildan "Jadid maktabi" ochib o'qituvchilik qila boshladim. Mullalar "Jadidchi"larni "Munofiq", "Mufsid", "Zindiy", "Daxriy" so'zlari bilan xalq orasida propaganda va ahitatsiya qila boshladilar"⁶.

Yuqorida keltirilgan Abdulla Avloniyning so'zlaridan shuni tushunish mumkin – ki xalq orasida mutassib kayfiyatida yurgan aksaryat mullalar ham jamiyatga yangilikni olib kirmoqchi bo'lgan jadidchilarga juda kuchli qarshilik qilganlar.

O'z davrining mashhur adabiyotshunos olimlaridan biri Otajon Hoshim Jadid adabiyoti haqida shunday yozadi: "Jadid adabiyoti O'zbek burjuaziyasi adabiyotidir. Jadid adabiyoti O'zbek burjuaziyasining fikrini uning boshdan kechirgan holatlarini aks ettiradir, uning uchun ishlaydur,yonadur, kuyadur, yig'laydur"⁷. Burjuaziya sovet tushunchasi bo'yicha mehnatkash xalqning eng katta dushmani edi. 1929 yil munavvarqori va uning sheriglari qamoqa olinib, tergov ishlar boshlandi. 1931 yil 25-aprelda OGPUning qarori bilan 56 kishi sudga tortildi 18 kishiga sudning qarori bilan otib o'ldirishga hokum qilindi. 1937 yilda ommaviy qatog'on boshlandi. "Millat" va "Vatan" deganning hammasi "Xalq dushmani" "vatan xoini" sifatida otib tashlandi. Shu tariqa sho'ro hukumatining jadidchilik mafkurasiga qarshi 20- yillarning ikkinchi

⁵ Qosimov Begali. Milliy uyg'onish: Jasorat, Ma'rifat, Fidoiylilik. T.: "Ma'naviyat". 8-bet

⁶ Qosimov Begali. Milliy uyg'onish: Jasorat, Ma'rifat, Fidoiylilik. T.: "Ma'naviyat". 10-bet

⁷ Otajon Hoshim. Jadid adabiyoti to'g'risida. "Qizil qalam" majmuasi. 2-kitob Uzdavnashr S.T., 1929 yil 16-bet

yarmida boshlangan qarshi kurashi ushbu mafkurani xalq orasidan ko'tarish bilan cheklanmay, uning vakillarini jismonan yo'q qilishgacha bordi. Tabiiyki ushbu siyosiy muhit jadidchilikning ruhi va yo'nalishini belgilab berdi. Jadidlar va ularning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy faolyati asosan ayb qidirish, tanqid va qoralash obekti sifatida qabul qilindi. Bularning harakterli namunalari Olim Sharafiddinovning Cho'lpon, J.Boypo'latovning Fitrat, Sotti Husayning "O'tkan kunlar" haqidagi maqolalari edi. Badiiy adabiyotda esa jadidchilikning mehnatkash xalq manfaatlariga qarama-qarshi qilib qo'yilgan dushman obrazlari yaratildi.

1953 yil Stalinning vafoti bilan sovet davlatda mafkuralarida ham o'zgarish yuz bera boshladi. 1956 yil KPSS ning XX sezida Stalin qatag'onlari yumshatildi. "Xalq dushmani" sifatida qatog'on qilingan ziyolilarning bir qismi oqlandi. Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asari bir oz qisqartirishlar bilan chop etildi⁸. So'ng So'fizoda⁹, Avloniy¹⁰ kabi maqola va tadqiqotlar o'rtaga tashlana boshlandi. Cho'lpon ijodini o'rganish bo'yicha komissiya tuzildi. Lekin 60-yillarning oxiri 70- yillarning boshlariga kelib hammasi yana qaytadan boshlandi farqi shunda - ki jismoniy qatog'onlar yo'q, lekin rus mustamlakachilik siyosatiga ayniqsa qizil saltanatga qarshi qarshi yozilgan har qanday adabiyotlarni chop etish, milliy mustaqillik g'oyasini ilgari surishga qattiq cheklovlar qo'yildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin ki Jadidchilik harakati o'z davrida mamlakat aholisiga ma'rifat ulashish, milliy istiqlol, erk va ozodlik uchun kurashga undadi va bu yo'lda garchan mamlakatni mustaqil qila olmagan bo'lsada O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Milliy uyg'onish:jasorat, Ma'rifat, Fidoiylilik. Toshkent. "Ma'naviyat"2002. 4-bet
2. I.Gasprali.Rahbari muallimin yokimuallimlarga yo'ldosh.Simferapol 1898 yil 4-bet
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar.2 jildlik. 2- jild. T. "Ma'naviyat"., 1998 yil 288-bet
4. Abdulla Badriy. Yosh buxoroliklar kimlar? Maskva 1919 yil 3-bet
5. Otajon Hoshim. Jadid adabiyoti to'g'risida. 'Qizil qalam" majmuasi. 2-kitob Uzdavnashr S.T.,1929 yil 16-bet
6. Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. T.,1958
7. So'fizoda.Taronalar.,1968.
8. Boboxunov.A.,Maqsumov.M. Abdulla Avloniyning pedagogik faolyati. T.,1966
9. N. Abduholikova . Yosh avlod tarbiyasida axloqiy ma'rifatni shaklantirish orqali yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarga tobeligini oldini olish. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, (2021) 1(6), 113-116.
10. Мирзахмедов, А. М., Мирзахмедов, Х. А., & Абдухоликова, Н. А. Семейная жизнь в центральной азии: проблемы отцов и детей. Кронос: общественные науки, (2021) (2 (22)), 20-29.

⁸ Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. T.,1958

⁹ So'fizoda.Taronalar.,1968.

¹⁰ Boboxunov.A.,Maqsumov.M. Abdulla Avloniyning pedagogik faolyati. T.,1966